



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

2020-yil yanvar-aprel oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
1812,4 mlrd. so`m

Yirik qurilish tashkilotlari
ulushi—**13,2 %**

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi
– **64,0 %**

Norasmiy sektor
ulushi—**22,8 %**

Toshkent viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatida jami **1 812,4** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **92,2 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **238,1** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **13,2 %** ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **127,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,0 %** ni yoki **1 160,3** mlrd. so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **91,1 %** ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **22,8 %** yoki **414,0** mlrd. so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **82,3 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 238,1 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 127,4 %
- ulushi - 13,2 %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - 1 160,3 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 91,1 %
- ulushi - 64,0 %



Norasmiy sektor

- hajmi - 414,0 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati - 82,3 %
- ulushi - 22,8 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari, mlrd. so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **65,3 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **6,4 %** punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **13,6 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **1,0 %** punktga ko`paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **21,1 %** to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **5,4 %** punktga ko`paydi.



Yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi, jamiga nisbatan % da



- Bino va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



2020-yil yanvar-aprel oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **14,4 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,1 %** punktga ko'paydi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **50,6 %** ni (**1,9 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **35,0 %** ni (**2,2 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **27,0 %** ni (**12,8 %** punktga ko'paydi) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **73,0 %** ni (**12,8 %** punktga kamayish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **0,2 %** ni (**1,1 %** punktga kamayish) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **99,8 %** ni (**1,1 %** punktga ko'paydi) tashkil etdi.

Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	1812,4	92,2	100,0
Nurafshon sh.	79,2	87,8	4,4
Olmaliq sh.	63,9	86,1	3,5
Angren sh.	70,7	84,5	3,8
Bekobod sh.	62,7	89,5	3,5
Ohangaron sh.	59,6	90,4	3,3
Chirchiq sh.	86,6	84,7	4,8
Yangiyo'l sh.	30,6	99,8	1,7
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	50,6	83,0	2,8
Ohangaron	46,3	84,8	2,6
Bekobod	54,7	89,8	3,0
Bo'stonliq	115,3	107,6	6,4
Bo'ka	46,7	89,1	2,6
Quyi Chirchiq	41,1	99,1	2,3
Zangiota	234,2	93,1	12,8
Yuqori Chirchiq	100,1	90,6	5,5
Qibray	168,5	101,3	9,3
Parkent	99,8	92,9	5,5
Piskent	57,1	84,2	3,2
O'rta Chirchiq	81,1	90,0	4,5
Chinoz	47,8	86,9	2,6
Yangiyo'l	62,7	83,4	3,5
Toshkent	153,1	104,1	8,4

2020-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1160,3** mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **64,0** %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,1** % ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **22,8** % ni yoki **414,0** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **82,3** % ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **238,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **13,2** % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **127,4** % ni tashkil etdi.


Yanvar-aprel oylarida subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, % da




Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar-aprel oylarida **234,2** mlrd. so'm yoki o'tgan yilga nisbatan **93,1** % ga bajarildi.



Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:
 Ohangaron tumani (46,3 mlrd. so'm yoki 84,8 %), Quyichirchiq tumani (41,1 mlrd. so'm yoki 99,1 %) va Yangiyo'l shahri (30,6 mlrd. so'm yoki 99,8 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;



2020-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 12,8 % ini, Qibray tumanida 9,3 % ni va Toshkent tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 8,4 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Chinoz tumani bu ko`rsatkich eng past 2,6 % ni tashkil etdi. Quyi Chirchiq tumani 2,3 % ni va Yangiyo'l shahrida 1,7 % dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: B. Djavliyev
Aloqa telefoni: (71) 230-86-71